

MADANIYATLARARO MULOQOTNI TASHKIL ETISHDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING USTIVORLIGI

*O‘zb. Res. Jamoat xavfsizligi universiteti
Tillarni o‘rganish kafedrasi o‘qituvchilari
Sh.I.Musayeva va S.S.Mengliyeva*

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda madaniyatlararo muloqotni o‘rgatish va uni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarning ustivorlihi hamda ahamiyati haqida mushohada qilingan.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo muloqot, qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, muloqot, pedagogic muloqot.

Mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrat manbai - xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo‘shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab asrab kelmoqda. Buni biz ko‘plab amalga oshirilayotgan ishlarda ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ham ana shu an‘analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Milliy qadriyatlarimiz bizni o‘zimiz ko‘zlaganimizdan ko‘ra yuqori cho‘qqilarga olib chiqadi. Chunki milliy qadriyat bu- millatning ko‘rki, millatning yuzi.

Ta‘lim jarayonida muloqotni tashkil etishda ham milliy qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir. Uni kelajak avlod ongiga singdirib borish pedagoglardan katta mehnat va mahorat talab qiladi.

Psixologik lug‘atlarda muloqot tushunchasiga ikki xil ta‘rif beriladi:

1) muloqot– hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o‘rnatish va uni rivojlantirish jarayoni;

2) muloqot – belgilar tizimi orqali subyektlarning o‘zaro ta‘sirlashuvi.

Muloqot- ta‘lim oluvchi psixologik va ijtimoiy rivojining muhim omillaridan biri bo‘lib, birgalikdagi faoliyatda umumiy natijalarga erishish, shaxslararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida ikki yoki undan ortiq kishilarning o‘zaro harakati. [1]

Pedagogik muloqot deganda pedagog va tinglovchilar jamoasi o‘rtasida o‘zaro birgalikdagi harakatning mazmunan axborot ayirboshlashdan, o‘quv- tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish va o‘zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat tizimi, usullari va malakalari tushuniladi. Pedagog ushbu jarayonning tashabbuskori sifatida maydonga chiqadi va uni tashkil etadi hamda unga boshchilik qiladi.

A.N.Leontev pedagogik muloqotning tarbiyaviy-didaktik ahamiyatini baholar ekan, quyidagi fikrlarni bildiradi: faol pedagogik muloqot – o‘qituvchining, umuman olganda pedagogik jamoaning ta’lim-tarbiya jarayonida tinglovchilarni bilish va o‘rganish kaliti va o‘quv faoliyatining ijodiy xarakteri, tinglovchi shaxsining shakllanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratadigan, ta’lim-tarbiyada maqbul bo‘lgan emotsional muhitni ta’minlovchi, jumladan, ruhiy psixologik to‘siqlarning paydo bo‘lishini oldini oladigan, ta’lim oluvchilar jamoasida ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to‘g‘ri yo‘lga solib boshqarishni ta’minlaydigan va o‘quv-tarbiyaviy jarayonda o‘qituvchining o‘z pedagogik mahoratidan oqilona foydalanishi uchun imkoniyatlar yaratadigan muhim vositadir. [2]

Pedagogik muloqotning tuzilishida quyidagi bosqichlar alohida ajratib ko‘rsatiladi:[3]

1. Modellash (bashoratga doir) – pedagogik vazifalarga mos o‘zaro harakatning kommunikativ tuzilishini o‘ziga xos tarzda rejalashtirishni amalga oshirish.

2. Bevosita muloqotni tashkil etish (kommunikativ hujum) – pedagog tashabbuskorlikni o‘z qo‘liga oladi, guruhni tezlik bilan ishga jalb etish texnologiyasi.

3. Muloqotni boshqarish – qo‘llaniladigan ta’sir ko‘rsatish metodlarining kommunikativligini ta’minlash (tinglovchilarning tashabbusini qo‘llab-quvvatlash, tinglovchilarning tashabbus ko‘rsatishini tashkil etish, dialogik muloqotni yo‘lga qo‘yish, o‘z mo‘ljali real sharoit bilan uyg‘un tarzda korreksiyalash.

4. Pedagogik muloqot uslublari amalga oshirilayotgan pedagogik muloqot texnologiyasining borishi va natijalarini tahlil etish.

Muloqotning ushbu pedagogik tuzilishidagi bosqichlari pedagogik faoliyatda amalda qo‘llash uchun o‘qituvchidan yuksak mahorat va tajribani talab qiladi, chunki uni o‘z o‘rnida qo‘llash, imkoniyat yaratish albatta o‘qituvchiga bog‘liq bo‘ladi. Misol uchun, o‘qituvchi darsdan oldin qanday muloqot muhitini yaratishni o‘ylaydi va bundan tashqari kutilmagan vaziyatlardan chiqish tomonlariniyam hisobga oladi. Guruh bilan ishlash jarayonida ularni yanada faolroq bo‘lishi uchun o‘qituvchi kommunikativ hujumga o‘tib, tashabbuskorlikni o‘z qo‘liga olishi, muloqotni yanada jonlantirishi mumkin. Tashabbuskorlikni o‘z qo‘liga olganda albatta dialogik nutqni tashkillashtirishni unutmaslik lozim hamda bunday holatda albatta dars jarayoniga mos bo‘lgan metodlardan unumli foydalanish va bugungi kunning talabi bo‘lgan “Student centered” metodidan foydalanib o‘z o‘rnini talabalarga bo‘shatib “Student-student” muloqotini tashkil etishi lozim. Albatta bu jarayonda o‘qituvchi nazoratchi, yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lib turadi. Dars yakunida albatta muloqot natijalarini tahlil qilish ham samarali natija beradi.

Muloqotni tashkil etish jarayonida umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni ham beqiyosdir. Mashg‘ulotlar davomida bu qadriyatlarni singdirib borish ham muloqotni

tashkil etishga ko‘mak beradi, ayniqsa xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida bu ancha muommoli vaziyatdir, chunki biz xorijiy tilni o‘rganish jarayonida ko‘proq o‘sha davlat an‘analari, qadriyatlari geografik ma‘lumotlari haqida gaplashamiz, misollar keltiramiz va bu misollar yanada ko‘proq qiziqishni uyg‘otishi mumkin. Agar biz shu kabi holatlarda keltirilgan misollarimizni o‘zimizning milliy qadriyatlarimizga uyg‘un holda, qiyoslagan holda berib borsak bu yanada yaxshi bo‘ladi. Talabalar nafaqat xorijiy davlat balki o‘z mamlakatimiz milliy qadriyatlarini chog‘ishtirgan holda xorijiy tilda o‘zlashtirib boradilar. Bu esa albatta ular xorijliklar bilan muloqotda bo‘lganda bizning milliy qadriyatlarimiz haqida bemalol ma‘lumot bera olish imkoniga ega bo‘ladilar.

O‘zbekiston zaminida Sharq ma‘naviy madaniyatining muhim jihatlari uyg‘onish davrida rivojlangan bo‘lib, bu davrda yashab ijod etgan al-Xorazmiy, al-Kindiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Shayx Sa‘diy, Tusiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Mirzo Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ko‘plab mutafakkirlarning ijodiy meroslari pedagogik tafakkur taraqqiyotida, insonning ma‘naviy-axloqiy kamolotida, umumbashariy ma‘naviy qadriyatlarning yuksalishida muhim bosqich bo‘ldi. Ular Sharqona odob-axloq talablari asosida komil insonni tarbiyalashning ma‘naviy asosini yaratishga muvaffaq bo‘ldilar.

Ma‘naviy madaniyat manbalarida ilgari surilgan g‘oyalarga amal qilish, ularni yosh avlodga o‘rgatish va ongiga singdirish o‘qituvchining jamiyat va Vatan oldidagi yuksak burchidir.

Inson o‘z qadr-qimmatini va o‘zligini ta‘lim maskanlarida ta‘lim-tarbiya jarayonida anglay boshlaydi. Ta‘lim muassasalarida o‘qituvchi tomonidan o‘zaro muloqot asosida olib boriladigan quyidagi xususiyatlar negizida o‘quvchilarda muloqot orqali ma‘naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari ifodalangan:

Ma‘naviy madaniyatni rivojlantirish mezonlari

- har bir insonning qiziqishlarini ko‘ra bilish, his etish va hurmat qilish;
- milliy-ma‘naviy madaniyat manbalarini o‘rganish, o‘zligini anglashga ehtiyoj;
- inson hayotida mehnatning o‘rnini to‘g‘ri tushunish;
- insonparvarlik, mehr-oqibat, iymon- e‘tiqod, milliy qadriyatlarni e‘zozlash;
- Vatanga muhabbat, sadoqat, o‘z manfaatlarini jamiyat, xalq manfaatlaridan yuqori qo‘ymaslik;
- ota-ona, qarindoshlar va boshqa atrof-muhitdagi kishilarga nisbatan muruvvatli, sahovatli bo‘lish.

Ta‘lim va tarbiya jarayonida o‘quvchilar ongida muloqot asosida milliy qadriyatlar va ma‘naviy madaniyatni shakllantirish, o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro muloqotini hozirgi zamon pedagogik talablari asosida mukammal tashkil etilishni

ta'minlaydi.[4] Shuning uchun ham chet tili darslarini madaniyatlarning kesishmasida tashkil etish kelajak avlodni bo'lg'usi muommalarni oldini olishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, o'zaro tushinish madaniyatlararo yetuklik bugungi jamiyatning muhim omillaridan biridir, chunki u orqali jamiyatning eng ibratli hatto eng zararli omillarini ham ko'rib chiqishimiz, bartaraf etishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.Xoshimov, I.Yoqubov "Chet tili o'qitish metodikasi". "Sharq" nashriyoti – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyot. T-2003. 158-161 betlar.
2. Tolipov O'.Q., Usnonboyeva M. “Pedagogik texnologiyalarni tatbiqiy asoslari”, – T., 2006.
3. Swiderski R.M. Teaching language, learning culture. - London: Bergin and Garvey, 1993. -233 p.
4. Jalolov J. Bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish – ustuvor ta'limiy muammo sifatida // Bo'lajak chet til o'qituvchisini kasbiy yo'naltirish texnologiyasi: Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.: TDPU, 2009. s.3-6.
5. www.pedagog.uz